

**YORDAMCHI TARIX FANLARI TURKUMIGA KIRUVCHI  
NUMIZMATIKA VA BONISTIKA FANLARINING PAYDO BO’LISHI  
VAZIFASI VA METODOLOGIK ASOSLARI**

*Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o‘g‘li*  
*Andijon davlat pedagogika institute*  
*Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san‘at fakulteti*  
*Tarix yo‘nalishi talabasi*  
*Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanining yuzaga kelishida muhim ro‘l o‘ynovchi Yordamchi tarix fanlari turkumiga kiruvchi Numizmatika, Bonistika, fanlarining paydo bo‘lish tarixi fanining maqsad va vazifalari nimalar ekanligi, fan bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan akademik olimlarning keltirib o‘tgan fikrlari va fanlarning istiqbollari, bu fanlar sohalarining tasnifi, yo‘nalishlari va ish usullari hamda tarix fani uchun zarurligini, metodologik asoslarini tushuntirish hamda yordamchi tarix fanlari to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilish, haqida keng fikr va mulohazalar yuritiladi va bayon etiladi.

**Kalitso‘zlar:** Numizmatika, bonistika, metodologiya, tarix, istiqbol, fan, tadqiqot, taraqqiyot.

**ЗАДАЧА И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ  
ПРЕДМЕТОВ НУМИЗМАТИКИ И БОНИСТИКИ В РЯД  
ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ ИСТОРИЧЕСКИХ НАУК**

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются цели и задачи науки истории возникновения нумизматики, бонистики и хронологии, которые играют важную роль в возникновении науки истории и которые входят в категорию вспомогательных исторических наук. Высказан и изложен широкий спектр мнений и суждений о прошлых взглядах и перспективах наук, классификации, направлениях и методах работы областей этих наук, а также их необходимости для науки истории, объяснение их методологических основ и создание общего представления о вспомогательных исторических науках.

**Ключевые слова:** нумизматика, бонистика, методология, история, мировоззрение, наука, исследования, разработки.

**THE TASK AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF THE EMERGENCE OF  
NUMISMATICS AND BONISTICS SUBJECTS INTO THE SERIES OF  
AUXILIARY HISTORICAL SCIENCES**

**Annotation:** In this article, what are the goals and objectives of the science of the history of the emergence of Numismatics, Bonistics, and Chronology, which play an important role in the emergence of the science of history, and which are part of the category of auxiliary historical sciences. A wide range of opinions and opinions are expressed and stated about the past opinions and perspectives of the sciences, the classification, directions and working methods of the fields of these sciences, as well as their necessity for the science of history, explanation of their methodological foundations, and the creation of a general idea of auxiliary history sciences.

**Keywords:** numismatics, bonistics, methodology, history, outlook, science, research, development.

### KIRISH

Tarixiy izlanishlar tadqiqotlar olib borayotgan arxeologiya, etnografiya va tarix fanining turli sohalarida izlanishlar olib borayotgan tadqiqot bilan shug‘ullanayotgan har bir olim yoki ilmiy izlanuvchi yordamchi tarix fanlarini quyda keltirib o‘tiladigan tarmoqlarini o‘z o‘zidan chetlab o‘ta olmaydi. Yordamchi tarix fanlari tadqiqot metodikasi va texnologiyasiga doir umumiy va xususiy masalalarni o‘rganish, tahlil qilish, ishlab chiqish bilan chegaralanadi. Yordamchi tarix fanlarining har biri mustaqil tarix fani bo‘lib, o‘zining o‘z tarixi va metod va uslublari mavjud. Fanlarning har biri mustaqil fan sifatida shakllanish va rivojlanish yo‘lini bosib o‘tmoqda. Har bir yordamchi tarix fani umumiy va maxsus tarix fanlarini chuqur va keng hamda mufassal o‘rganishga yordam beradi. Yordamchi tarix fanlarining mustaqil fanlardan asosiy jihatlari shundaki, yordamchi tarix fanlari nisbatan tor doiradagi maqsad va vazifalarni o‘rganish faqatgina fanning tarixni yoritishda rolini ortirish bilan shug‘ullanadi. Yordamchi tarix fanlarining har bir bo‘limi alohida bir tarmoq bo‘lib tarix fani oldidagi muammolarni, kamchiliklarni to‘ldirish bilan birga o‘zining alohida tadqiqot usuli va tadqiq ob‘ekti, o‘z yo‘nalishlariga egadir. Masalan, yordamchi tarix fani bo‘limlaridan «xronologiya»- vaqtni, tarixiy voqealarni, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini davrlarga bo‘lishini umumiy qoidalari va xususiyatlarini o‘rganadi. Numizmatika - qadimgi tangalar orqali o‘sha davming siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va diniy tasavvurlari o‘rganishga yordam beradi. Tarixiy geografiya- eng qadimgi viloyatlar hududiy joy lashishi, davlatlarning hududlarini o‘rganadi. Tarixiy metrologiya-uzunlik, vazn, maydon, hajm o‘lchovlarini davlatlararo savdo-sotiq, mol ayirboshlash jarayonlarini o‘rganadi. Bundan tashqari, epigrafika, diplomatika, genealogiya, tarixiy geografiya, onomastika, arxeografiya kabi bir necha yordamchi tarix sohalar mavjud. Lekin, shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu maqolada mavzu sifatida tanlab olingan fanlar Yurtimizdagi tarixiy tadqiqot markazlari tamonidan numizmatika, bonistika, xronologiya fanlar ustidan jadal ishlar olib borilmoqda va rivojlanmoqda.

## MATERIALLAR VA USULLAR

Numizmatika fani ibtidoiy tovar almashuv munosabatlardan ekvivalent savdo munosabatlariga o'tishning tarixiy shartsharoitlarini, ekvivalent material sifatida tovarga tenglashtirilgan qimmat ifodasi sifatida pul birliklarini paydo bo'lishi, buning mulkchilik va davlatchilik jarayonlari bilan bog'liqligi, pul birliklarini ashyoviy tadqiqi bo'yicha siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarga tegishli yodgorlik sifatida ilmiy ahamiyatini tushuntirish maqsadida fan ustida izlanishlar olib borilmoqda. Fan haqida umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliglarida ham Numizmatika fani haqida boshlang'ich tushunchalar berib o'tilgan bo'lib Oliy ta'lim muasasalarining tarix fani mutaxassisligiga esa alohida reja grafik asosida dars soatlari tashkil qilinib o'rgatib kelinmoqda. Numizmatika so'zi lotincha Numisma - «tanga» demakdir. Tanga birinchi galda - pul, ya'ni tovar oldi-sotdi munosabatlarining qiymat belgisi va qiymat ashyosi. Insoniyat hayotida uning o'rni va roli beqiyos darajada katta bo'lib kelgan.

Tangalar o'tmishning eng muhim guvohlaridir. Ular tarix haqida, uzoq o'tmishdagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlar, dunyoqarash tizimlari, ishonch, e'tiqodlar haqida, badiiy tasavvurlar to'g'risida bebaho ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Tangalarning tarix haqida so'zlovchi «tili» o'ziga xos. Ba'zi tangalar o'tmish voqea-hodisalari haqida shu qadar aniq xabarlar beradiki, natijada u yoki bu tanganing dunyoga kelishi ham shu axborotning o'zidan ma'lum bo'ladi.

Boshqa tangalarning ma'lumotlari esa, unutilgan voqealar bilan bog'liq bo'lgani uchun mavhum bo'ladi. Ularning ma'nosini chin tarixiy jarayon bilan bog'lash g'oyat murakkab tadqiqotlarni, taqqoslash, tahlil kabilarni talab qiladi. Tangalarda yetib kelgan yozuvlar ba'zan unutilgan, tasvirlardagi odam, hayvon va boshqa ifodalar haqida tarixiy ma'lumotlar yo'qotilgan hollar ham ko'p uchraydi. Tangalar, ularni tarix bilan bog'lab o'rganish ishi bilan “Numizmatika” fani shug'illanadi. O'z navbatida Numizmatika tangalarning tasvirlari, yozuvlari, og'irligi, qanday metaldan yasalganligi, pul muomilasidagi darajasi va tanga zarb qilinish tarixini o'rganadi.

TANGA atamasi turkcha tang'a so'zidan olingan bo'lib metaldan yasalgan pul birligi. Tangalar aversi (yuzi), reversi (orqa tomoni va gurti (cheti) orqali bir-biridan farqlanadi.

Tanganing tarkibiy tuzilishi va ularga berilgan atamalar haqida :

Revers – orqa tomon. Bu tushuncha ham avers kabi shartli hisoblanadi. Hozirgi kunda bu holatga aniqlik kiritish sohasida bahslar davom etmoqda, ammo bu bahslarda bu tushunchalar tangani ta'riflashda o'ng'aylik bo'lishi uchun kashf etilganligi yoddan ko'tarilmoqda.

Emitent – Tanga zarb etish huquqiga ega bo'lgan shaxs, xo'jayin, sohib tangani o'zining nomidan chiqaradi. O'rta asrlarda bunday huquqqa - hukmdor, imperator, qirol, feodal respublikasi, erkin shahar ega bo'lgan.

Tanga huquqi – zarb etish huquqi – davlatning suveren huquqlaridan biridir. Bu huquq imtiyoz shaklida taqdim qilinishi, sotilishi, ijaraga berilishi, garovga qo'yilishi mumkin.

Tanga regaliyasi – tanga zarb qilish huquqiga ega bo'lganlarning imtiyoz sifatida zarb qilishdan foyda ko'rishi. Ba'zan tanga huquqi bilan tenglashgan holatda bo'ladi.

Tanga - bu belgilangan formadagi metall quymasi. U o'zining og'irligiga, qiymatiga, sifatiy tarkibiga ega bo'ladi va qonuniy muomala vositasi hisoblanadi. Ma'lumki, numizmatika tanga pullar haqidagi fandır. «Numizmatika» termini o'rta asrdan e'tiboran tanga pullar haqidagi fanning nomi sifatida ishlatila boshlandi. U tanga va qog'oz pullarning, orden va medallarning yuzaga kelish tarixini o'rganadi, shu asosda fanning turli sohalariga, jumladan tarix va arxeologiya, siyosiy iqtisod, tilshunoslik va san'atshunoslikka oid masalalarni hal etish ishiga yaqindan yordam beradi. Dastlabki metall pullar qadimgi dunyo davlatlarida masalan, Misr va Mesopotamiyada mil. avv 3 ming yillikda paydo bo'lgan. Gerodotning va Ksenofontning ma'lumotlariga qaraganda birinchi tangalar Kichik Osiyoning Lidiya davlatida paydo bo'lgan. Ularni elektradan, ya'ni oltin va kumushning tabiiy qorishmasidan tayyorlaganlar. Keyinroq Yunonistonning Egin shaxrida ham kumushdan tanga zarb etilgan. Shuni aytish lozimki, bu davlatda tanga chiqarishni Lidiyadan o'zlashtirmay, mutaqil ravishda zarb qilganlar. Bunda lidiyaliklarning ta'sirini sezilmaydi. Eginliklar tangani sof kumushdan zarb qilganlar. Uning shakli ham, undagi tasvir ham lidiyaliklarnikidan o'zgacha bo'lgan. Bu tangada toshbaqa tasvirlangan. Bu tangani lidiyaliklar oltin stater deb ataganlar.

Ko'p o'tmay, lidiyaliklar va eginliklar ta'siri ostida Yunonistonning boshqa shaharlari, ularning Qora dengiz bo'yidagi koloniyalarida, keyin mustaqil ravishda Eron, Rim, Hindiston, Xitoy va boshqa joylarda tanga zarb qila boshlardi.

Tanganing zarb etilishi davlatning tashkil etilishi bilan ham bog'liq. Biroq bu bilan davlatlarning tashkil topishini bog'lash mumkin emas. Chunki Lidiya va Eginga qaraganda Shumer, Akkad, Bobil va yunon shahar davlatlari tarakqiyoti yuqori darajada bo'lgan, ammo tanga zarb qilinmagan edi.

Qadimgi Yunoniston tangalarida xudolar bilan birga muqaddas hayvonlar tasvirlangan. Masalan, Afina tangalarida Afina ma'budasining bosh qismi yoki boyo'g'li, Olimpiya tangalarida esa bosh xudo Zevsning bosh qismi tasvirlangan. Yunonlarning Qora dengizning shimoliy sohilida joylashgan Olviya shahrida delfinga hamla qilayotgan burgutning tasviri tushirilgan. Xersonesda esa Deva ma'budasi tasvirlangan. Skiflarning tangalarida esa kamon tutgan chavandoz tasvirlangan. Rim saltanatida imperatorlarning portreti bilan birga ular yuritgan siyosatni targ'ib kiluvchi shiorlar ham aks etgan. Tanganing ikki, old (avers) va orqa (revers) tomoni bor. Har ikkala tomoniga ham rasmlar va yozuvlar tushirilgan bo'ladi. Rasm va yozuvlar tasvirlangan maydon «tanga maydoni» deb ataladi. Odatda tanga maydoni chiziqli yoki

nuqtali, yoki bo'lmasa uzun munchoqqa o'xshash xoshiya bilan o'ralgan bo'ladi. Tanga qirasi «gurt» deb ataladi. Tangada tasvirlangan rasm va yozuvlar tanga tipinig asosini tashkil etadi. Rasm va yozuvlar mazkur tangani zarb etgan davlat, qirollik, xonlik yoki shaharning o'ziga xos muhridir. Bu bilan shoh, qirol, xon yoki shahar hokimi bozorga muomalaga chiqarilayotgan tangalar haqiqiy va to'la qiymatga ekanligini takidlaydi. Tanga metalli, uning sofligi va og'irligi davlat tomonidan kafillanishi kerak. Tangalar nafaqat siyosiy ma'lumotlarni, balki madaniyat san'atga oid ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Ulardan qadimgi arxitektura yodgorliklari suratini aks ettirganligi, ularga qarab arxitektorlar binolarni ham ta'mirlashi mumkin.

### **METODALOGIYA**

Tangalar saqlash yoki ularni biror bir odatga bog'lash turli davlatlarda turlicha qaraladi. Jumladan Yurtimizdahan Buloqlarga, ko'llarga tanga tashlash odati xalqimizda hozirgacha mavjud bo'lib turli hudud odamlari bu odatni turlicha tariflaydilar. Masalan ayrim hududlarda ko'llarga tanga tashlash boylik olib keladi deb qaralsa yana bir boshqa hududlarda esa tanga tashlash turli hil balolarni qaytaradi va harhil yuqumli kasaliklarning oldini oladi degan qarashlarham mavjud. Numizmatikaning fan sifatida shakllanishi. Tangashunoslik fanini o'rganishda dastlab mashhur tanga kolleksionerlari bo'lgan. Ayniqsa, XIV-XV asrlarda Uyg'onish davri mamlakati bo'lgan Italiyada qadimgi tangalarni yig'ishgan. Jumladan, mashhur shoir Petrarka (1304—1374) va florensiyalik Kozimo Medichi (1389-1464). 1-numizmat Paduyalik Jovanni Kavini (1499-1570) bo'lib, uning kolleksiyasida ko'plab qadimgi davr tangalari bo'lgan. XVIII-asrda numizmatika bilan ilmiy shug'ullanuvchi mutaxassislar - «Numizmatlar» paydo bo'ldilar. Avstriyaning Vena shahrida imperator Maksimilian I saroyida, Parijda qirol Genrix IV va Lyudovik XIV ning kabinetida qirollarning medallari to'plangan. XVIII-asrda Britaniya muzeyida tangalarning yirik kolleksiyasi yig'ilgan. XVIII-0asrda Peterburgda Petr I asos solgan muzey - Kunstkamera deb atalib, unda tangalardan tashqari medallarning ham katta kolleksiyasi saqlangan. Keyin bu kolleksiyalar Ermitajga berildi. Hozirgi kunda Ermitaj tangalar kolleksiyasi bo'yicha Yevropada 1-o'rinda turadi. Yevropaning beshta shahrida - Parij, London, Peterburg, Vena va Berlinda kadimgi tangalarning yirik kolleksiyalari jamlangan. Ilmiy numizmatika vujudga kelishi ruhoniylar va numizmat I.I.Ekkel (1707-1798) nomi bilan bog'liq. U “Qadimgi tanga pullar haqidagi fan” nomli 8 tomlik asar yozgan. Bu asarda 70 ming tanga pulni aniqlab, turkumlarga ajratgan. Aniqlay olmagan tanga pullar to'g'risida gapirmagan, ularni nomalumlardan qatoriga qo'shib qo'ygan, lekin u ko'p mamlakatlarni tanga pullarini aniqlay olmagan.

Numizmatik izlanish asosida tangalardan tarix va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni maksimal darajada olish vazifasi yotadi. Numizmatika tushunchasiga yana qog'oz pullarni o'rganish ham kiradi va ularni “Bonistika” o'rganadi. BONISTIKA— fransuzcha, yaxshi, qulay ma'nosini bildiradi. Buyuk Sovet

Entsiklopediyasiga ko'ra, Bonistika nomi frantsuzcha (bonistique) "bons" dan keladi. Bu tarixiy kichik fan bo'lib, banknotalar yoki banknotalar yoki obligatsiyalarni, foydalanishdan chiqqan tarixiy hujjatlar sifatida o'rganishga bag'ishlangan. iqtisodiy munosabatlar va jamiyatdagi siyosiy vaziyat. Ushbu intizom 20-asrning boshlarida paydo bo'lgan va boshqa pul yig'ish-numizmatika bilan chambarchas bog'liq. Numizmatikaga tabiatan yaqin bo'lgan bonistika tarix fanining banknotlar, banknotlar, obligatsiyalar va boshqa turli qog'ozlarni o'rganadigan bir turidir. Bona nomi qadimgi lotincha "bonus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qulay" yoki "yaxshi" deb tarjima qilinadi. Hozirgi vaqtda ba'zi tarixchilar o'rtasida bonistika turli xil turlarini o'rganadigan to'liq yordamchi tarixiy fan ekanligi haqida ilmiy munozaralar mavjud. qimmatli qog'ozlar, ularning dublikatlari, shuningdek, ularning o'rnini bosuvchi ma'lum qog'ozlar yoki Bonistika, bu hali ham tarix fanining veksellar, banknotlar, obligatsiyalarga qaratilgan mustaqil va to'liq huquqli bo'limi. Bonistika nomining bunday talqinini Zamonaviy iqtisodiyot lug'atida topish mumkin. Yordamchi tarix sohasi, muomaladan chiqqan qog'oz pullar va bonlarni jamiyatning iqtisodiy hamda siyosiy tarixi manbasi sifatida o'rganadi. XX asr boshida fan sifatida shakllangan. Bonistika - bu yordamchi tarix sohasi muomaladan chiqib ketgan pul birliklari va pul qiymati vazifasini o'tovchi qog'oz belgilar tadqiqoti bilan shug'ullanadi.

## NATIJALAR

"Bona" so'zi 19-asrda Fransiyada cheklar, kuponlar va boshqa qimmatli qog'ozlar nomi uchun paydo bo'lgan. Bonistika - bu Bonlarni o'rganish sohasi. Bu umumiy tushuncha bir marta ishlatilgan barcha qog'oz pullar uchun (aktsiyalar, obligatsiyalar, banknotlar, kuponlar). Bonistika - numizmatika bilan bir qatorda ma'rifatli va ziyoli odamlar olamida mustahkam o'rin olgan fan.

Bonistika qog'ozda ifodalangan pul birliklarining jahon miqyosidagi tarixini, sitemali ravishda o'rganadi. Bonistika fanini o'rganish bir tamon dan iqtisodiy jarayonlarni, ikkinchi tomondan esa siyosiy munosabatlarni o'rganishga yordam beradi. Ma'lumki, ekvivalent qiymat ma'nosida shartli qog'oz belgilaridan foydalanish tajribasi o'rta asrlarda bir qator mamlakatlarda ishlatilgan, Jumladan, Xitoyda chingiziyulardan Xulagu davrida qog'oz pul joriy etish tajribasi amalga oshirilgan. Qog'oz pul birliklarini kolleksiya qilish va ular bilan savdo qilish faoliyati ham bonistika deb ataladi. Tarixda bonistika bilan shug'ullanish Xitoy bilan bog'liq hisoblanadi. Biroq, qog'oz pullarni yig'ish bonistik harakati 1940-yillardan boshlangan deb hisoblanadi. Ayniqsa 1970 yillarda bu soha maxsus kasb yo'nalishi darajasiga yetdi. Eskiliklarni yig'ishning maxsus sohasiga aylandi. Qo'shma Shtatlarda, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda bonistik kataloglar nashrlari paydo bo'ldi. Bu hol bonistikaning rasmiy sohaga aylanganini ko'rsatadi. 1961 yilda «Xalqaro banknotlar uyushmasi» paydo bo'ldi, bu uyushma bonistlar faoliyatini

muvoqilashtirib turadi. Hozirgi kunda 10 minglab bonistlar uyushma a'zovidir. Har uch oyda bonistlar o'zlarining ilmiy jumalini chiqarib turadi. Bonistikaning tashabbuskori Albert 248 Pik bo'lib, dastlabki bonistik katologlarning muallifi. Bu bonist, bonistikaning ahamiyati va ilmiy maqsadlarini tushuntirib bergan. Albert Pik dunyo qog'oz pullarining standart katologining ham muallifidir. Katolog uch jilddan iborat kitob holdida nashrdan chiqqan. Jahon miqyosidagi qog'oz pullarning namunalari ushbu katologga kiritilgan. Bonistika bu (fransuzcha-»bonistiques» so'zidan olingan bo'lib «qog'oz pullar degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha XX asming boshlarida paydo bo'lgan va Numizmatika fanining chambarchas bir bo'lagiga aylandi.

Qog'oz pullardagi yozuvlari ham aynan «bonistika» o'rganadi. Dunyodagi eng qadimgi birinchi qog'oz pullar Xitoyda paydo bo'lganligi tarixdan bizga ma'lum. Biroq dunyoda qog'oz pullarni muntazam o'rganish 1940-yildan boshlandi. Bonistika mustaqil tarmoq sifatida ajralib chiqishi 1970 yilda yuz berdi va bu sohada tub burilish bo'ldi. Shu bilan birga bonistikani rivojlantirishda AQSH, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarning o'mi beqiyosdir. Pullar 3 xususiyatga bo'linadi. 1-xususiyati : pul hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim hand vositasi. 2-xususiyati: pulni ayrim hududlarda boylik timsoli sifatida qarashar ekan. 3-xususiyati: pulni ba'zi hududlarda mehnatni qiymat shaklida o'lchab beradigan vosita sifati kabi xususiyatlarga bo'lishgan. Pullar hamma vaqt ham qog'oz va metall ko'rinishida bo'lavermagan. Insoniyat tarixida pul sifatida quyidagilardan foydalanishgan: oltin, kumush, turli mahsulotlar, hayvonlar va hatto odamlami ham ayirboshlashgan. Masalan XX asrgacha Xitoy va Birmada pul sifatida tuz, ipak va plita shaklidagi choydan, qadimiy Meksikada kakao no'xotlaridan, Janubiy Sharqiy Osiyodan opiydan foydalanishgan. Qadimgi asteklar hayvonlarning suyaklarini pul o'rnida qo'llashgan, Nigeriya, Sudan va boshqa ba'zi mamlakatlarda esa «kauri» dengiz chig'anoqlarini qo'llashgan. Sharqiy slavyanlar arablar bilan savdo-sotiqalarda suvsar mo'ynasidan foydalanishgan. Qadimgi Gretsiyada risoladagidek pullar muomalada bo'lganiga qaramay Spartada pul sifatida atayin qo'pol va o'xshovsiz temir xivchinlardan foydalanilgan, sababi shuki, kamroq o'g'rilik qilishi va kamroq pora berishi uchun o'ylab topilgandi. Bundan tashqari spartaliklarning boylikka intilmasliklari uchun ham o'ylab topilgan bir siyosat deb qarashimiz mumkin.

### **XULOSA**

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti ulkan, poyonsiz yo'llarni bosib o'tdi, taraqqiyotni evolyutsion yo'li, insoniyatni sivilizatsiya sari yetakladi. Antik taraqqiyotni boshlanishi san'at va madaniyatning xamma soxalariga ta'sir ko'rsatib, o'zining rivojlanish yo'lida yuqoriga etgan bo'lsa, bu davrda tarix fanining aloxida bo'limi xisoblangan numizmatika va bonistika soxasida xam diqqatga loyiq ishlar qilingan. Metalldan ishlangan pul tanga chaqalarning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi muxim voqealardan biridir. Ma'lumki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g'oyat yuksak darajasiga erishgandagina tanga chaqalar kashf etilishi mumkin. Tarix

manbashunoslikka tayanadi. Manbalar esa, moddiy-ashyoviy hamda yozma turlarga bo‘linadi. Moddiy manbalar inson faoliyati mahsuloti sifatida qaraladi va tarixchi-arxeologlarning talqinlari orqali tarix faktlariga aylanadi. Butun jaxon iqtisodiyotida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar nagtijasida insoniyat hayotida asta sekinlik bilan tangallar o‘rnini Qag‘oz pullar egallay boshladi. Bu esa o‘z navbatida bir muncha qulayliklar yaratdi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki tanganiham qag‘oz pullarning yaratilishiham insoniyat hayotini yangi bosqichiga olib chiqdi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Rahmonqulova Z. Xronologiya. -T.: A.Navoiy nomidagi davlat nashriyoti, 2006.
2. Vspomogatelniye istoricheskiye dissiplini. Kurs leksii. Sost. A.A.Brodnikov. - Novosibirsk, 2012
3. Rasulov. D. Buxoro amirligida zarb qilingan pullar // Moziydan Sado, 2 (38) 2008.
4. Rustamov M.T “Yordamchi tarix fanlari” Metrologiya (Maxsus kurs) 1998.
5. Rahmatullayeva O., Salomov J. Xronologiya. Metodik qo‘llanma 2012
6. Rahmatullayeva O., Salomov J. Numizmatika. Metodik qo‘llanma 2012.
7. M. Is‘hoqov, I. Xudaynazarov Yordamchi tarixiy fanlar 2019